XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND SHAHAR KENGASHI QARORI

2023 - yil 11 - may VI-85-76-7-107-K/23 Samarqand shahar hokimligi

Samarqand shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

“2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 22-dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 27-dekabrda ma’qullangan*)* va xalq deputatlari shahar Kengashining 2021-yil 30-dekabrdagi VI-77-251-7-107-K/22-sonli “Samarqand shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asoslanib, shuningdek, shahar hokimligiga boshqarma va tashkilotlardan, fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni inobatga olib hamda shaharda bir qator ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish maqsadida shahar mahalliy budjetining 2023-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobiidan foydalanish yuzasidan shahar hokimi o‘rinbosarlari (F.Najmiddinov, E.Radjabov, O.Xaitov, Z.Saidova) va shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliyev)ning 2023-yil 18-apreldagi bildirishnomasini inobatga olib, shuningdek, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Mamadaliyev)ning 2023-yil 18-apreldagi 01-38/231-sonli xulosa xatiga muvofiq “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashining navbadan tashaqari VI chaqiriq, LXXXV sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimi o‘rinbosarlari F.Najmiddinov, E.Radjabov, O.Xaitov, Z.Saidova va shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi B.Mamadaliyevlarning 2023-yil

18-apreldagi shahar mahalliy budjetining 2023-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar mahalliy budjetining 2023-yil I-chorak yakuni bilan daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan jami 7 ta tadbirlar uchun **543 194** (besh yuz qirq uch million bir yuz to‘qson to‘rt) ming so‘mlik mablag‘lar ilovaga muvofiq ajratilsin.

3. Shahar hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Mamadaliev), shahar hokimligi bosh hisobchisi (Tursunova)larga:

ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish,

ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish yuklatilsin.

4. Shahar hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Mamadaliyev), shahar g‘aznachilik bo‘linmasi (Amirov)larga:

shahar mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish;

mablag‘larni belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining “Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sayfiddinova) va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b (Radjabov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Samarqand shahar
Kengashining
2023 yil 11 maydagi
VI-85-76-7-107-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-yil I-chorak yakuni bo‘yicha shahar mahalliy budjeti daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar

HISOB-KITOBI

T/r	**Mablag‘ ajaratiladigan tashkilotlar nomi**	**Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi**	**Asos bo‘luvchi xujjatlar**	**Ajratiladigan mablag‘ miqdori (ming so‘m)**
1	Shahar obodonlashtirish boshqarmasiga	Samarqand shahar hududidagi markaziy ko‘cha va xiyobonlariga ekiladigan turli manzarali gullar sotib olish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar obodonlashtirish boshqarmasi (Y.Bobonazarov)ning 2023-yil 18-apreldagi 206-sonli murojati	300 000,0

2		O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 25-dekabr kuni mamlakatimiz yoshlari bilan videoselektor tarzida o‘tkazilgan O‘zbekiston yoshlari forumining 100-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi majlisining 9-son bayoni 3-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida Samarqand shahrida madaniyat va san’at sohasida yutuqlarga erishgan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutiga 3-bosqichda o‘qiyotgan 5 nafar yoshlarni 50% to‘lov kontrakt to‘lovlarini to‘lab berish bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimi o‘rinbosari (O.Xaitov)ning 2023-yil 10-apreldagi bildirishnomasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori (I.Yuldashev)ning 2022-yil 25-oktabrdagi 02-5/2-1511-sonli xati	29 143,3
3	Shahar hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2022-yilning 29-aprel kuni Samarqand shahrida jamoat transportini rivojlantirish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan taqdimot davomida berilgan topshiriqlar bo‘yicha 41-son bayonning 3-bandi ijrosini ta’minlash, aholiga sifatli transport xizmatini ko‘rsatish, avtotransport vositalarining tartibli harakatlanishini ta’minlash va shahar ko‘chalarida yuzaga kelayotgan tirbandliklarni oldini olish maqsadida, xorijiy ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan master-rejada belgilangan tadbirlar sifatli va to‘liq amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida Samarqand shahar hokimligi huzuridagi “Loyiha ofisi”ning rahbari lavozimiga tayinlangan Raximov Otabek Aslomovichning 2023-yil yanvar-iyun oylari ish haqi to‘lovlari bilan bog‘liq xarajatlarga	Samarqand shahar hokimining 2022-yil 13-iyundagi ““Loyiha ofisi”ni tashkil qilish to‘g‘risida”gi 378-7-107-Q/22-sonli va 2022-yil 17-iyundagi ““Loyiha ofisi” faoliyatini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi 394-7-107-Q/22-sonli qarorlari hamda Xalq deputatlari viloyat kengashining sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jalik hamda aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (U.Saidmuradov)ning 2023-yil 27-martdagi 1030/15-sonli murojaati	32 742,1
4		Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati haydovchisi Quvondiqov Firdavs Akbarovichning 2023-yil aprel-iyun oylari ish haqi to‘lovlari bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (A.Rahmatullayev) va bosh hisobchi (D.Tursunovani 2023-yil 17-apreldagi bildirishnomasi	16 180,3
5		Shahar hokimining arxitektura va dizayn masalalari bo‘yicha maslahatchisi Xudaykulova Fotima Inatullayevnaning 2023-yil aprel-iyun oylari ish haqi to‘lovlari bilan bog‘liq xarajatlarga		20 830,3
6		Shahar hokimligiga kelib tushayotgan murojatlar uchun javob xatlarini yuborish maqsadida "Hybrid.pochta.uz" tizimi xarajatlari uchun	Shahar hokimligi ijro nazorati bosh mutahassisi (O.Mahmudov)ning 2023-yil 13apreldagi bildirishnomasi	30 000,0
7		Shahar hokimligi ishchi xodimlarini 2023-yil Muborak ramazon hayiti bayrami munosabati bilan mukofotlash bilan bog‘liq xarajatlarga	Shahar hokimi o‘rinbosarlarining 2023-yil 17-apreldagi bildirish nomasi	114 298,0
	Jami			**543 194,0**